



TEZKOR-QIDIRUV FAOLIYATIDA FUQAROLARNING HUQUQ VA ERKINLIKLARINING KAFOLATLARINI TA'MINLASH

Fayzullayeva Sevara Xayrullo qizi

Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi, 3-kurs kursanti.

shoh.abdu02@gmail.com

***Annotatsiya:** “Tinchlik osoyishtalikdagi erkinlikdir”. Markus Tullius Tsitseron Jamiyat hayotida tinchlik, xavfsizlik hamda osoyishtalik bo'lmas ekan, inson va fuqarolarga berilgan har qanday erkinlik hamda huquq ro'yobga chiqmaydi.*

Ushbu maqolada xavfsizlik hamda tinchlikni ta'minlash maqsadida amalga oshiriluvchi tezkor-qidiruv faoliyatiga doir prinsiplar, tezkor-qidiruv faoliyati prinsiplari, sohaga doir xorijiy tajriba hamda qonunchiligimizda to'ldirilishi lozim bo'lgan bo'shliqlar haqida fikr va mulohazalar bildirilgan.

***Kalit so'zlar.** Tezkor-qidiruv faoliyati, maxfiy ma'lumotlar, qonuniylik, insonparvarlik, til biriktirish.*

Tezkor-qidiruv faoliyati – qonun hujjatlarida vakolat berilgan organlar tomonidan inson va fuqarolarning hayoti, sog'lig'I, huquq va erkinliklarini, jamiyat va fuqarolar xavfsizligini, mamlakatni jinoiy tajovuzlardan himoya qilish maqsadida tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish orqali oshkora va yashirin ravishda amalga oshiriladigan faoliyat hisoblanadi. Tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazuvchi davlat idoralari hamda xodimlar faqatgina qonunchilik ularga bergan vakolatlardan foydalangan holda o'z faoliyatini amalga oshiradilar. Chunki ushbu faoliyat turi asosan maxfiy va mutlaqo maxfiy hisoblangan axborotlar bilan ishlaydi. Maxfiy ma'lumotlar esa inson va fuqarolarning shaxsiga doir bo'lishi ham mumkin. Xuddi shu nuqtada mazkur sohaning qanchalik nozik tomonlari mavjudligini bilinadi. Tezkor-qidiruvni amalga oshiruvchi orgnalarning vazifalari, bular:

Birinchidan, jinoyatlarni aniqlash, oldini olish va ularga chek qo'yish va fosh etish, shuningdek ularni tayyorlagan, sodir etgan yoki sodir etishga uringan shaxslarni aniqlash va ushlab choralarni ko'rish;



Ikkinchidan, surishtiruv, tergov va sud organlaridan jinoiy jazolarni o'tashdan bo'yin tovlagan shaxslarni, shuningdek bedarak yo'qolganlarni qidirish ishlarini amalga oshirish;

Uchinchidan, mamlakat xavfsizligiga putur yetkazuvchi hodisa va harakatlar haqida axborotga ega bo'lish.

Ushbu vazifalardan kelib chiqadigan bo'lsak, terkor-qidiruv faoliyatining ham, terkor-qidiruvni amalga oshiruvchi organlarning ham faoliyatidan asosiy ko'zlangan maqsad bu fuqarolarning xavfsizligi, tinchligini ta'minlash, mamlakatning surerintetini hamda yakdilligini ta'minlashdan iborat. Mazkur vazifalardan kelib chiqib, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashda tezkor-qidiruv faoliyati quyidagi tamoyillarga asoslanadi. Qonuniylik, insonparvarlik, inson va fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini ta'minlash, shuningdek til biriktirish, ommaviy va maxfiy usul va vositalarni uyg'unlashtirish va boshqalar mazkur faoliyat turining asosiy prinsiplari hisoblanadi.

Endi bevosita terkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirishda fuqarolarning huquq va erkinliklariga rioya etish masalalariga to'xtalib o'tsak. Yuqorida ta'kidlanganidek, har qanday o'tkazilayotgan tezkor-qidiruv tadbiri fuqarolarning sha'ni, qadr-qimmatini, huquq va erkinliklariga rioya etilgan holda amalga oshirilishi zarur. Xalqaro hujjatlarda ham shu maqsadda tezkor-qidiruv tadbirlari, tezkor-qidiruv faoliyatiga bevosita chambarchas bog'langan inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlashga alohida e'tibor qaratgan. Xususan, 1997-yil, 6-dekabrda MDH a'zo davlatlar Parlamenti Assambleyasining o'ninchi yalpi majlisida qabul qilingan "Tezkor-qidiruv faoliyatini tartibga solish to'g'risi"dagi Qonunida "Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning xatti-harakatlari uning huquq va erkinliklari buzilishiga olib kelgan deb hisoblagan shaxs ushbu harakatlar ustidan sudga, prokuraturaga yoki tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi yuqori turuvchi organga shikoyat qilishga haqli" ekanligi



belgilangan.¹ Ushbu qabul qilingan qonun barcha MDH mamlakatlari uchun majburiy hisoblanadi. Yuqorida keltirib o'tgan qoida, jinoyat sodir etishda aybi qonunda belgilangan tartibda isbotlanmagan, tergov va tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish bo'yicha faktlarga ega bo'lgan va ayni paytda uning huquqlari buzilgan deb hisoblagan shaxs tezkor qidiruvni amalga oshiruvchi organga murojaat qilishga haqli ekanligini bildiradi. Biz ushbu maqolamiz orqali tahlil qilayotgan masalamiz ayni kunda mamlakatimiz qonunchiligidan o'zining sezilarli o'rnini egallashi zarur hisoblanadi. 2012-yilda qabul qilingan "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi Qonunda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashga doir qoidalar alohida tartibda ko'rsatib o'tilmagan. Faqatgina yuqoridagi qonunning 28-moddasida "Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning qarorlari, mazkur organlar xodimlarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan bo'ysunuv tartibida yuqori turuvchi organga, prokurorga yoki sudga shikoyat qilinishi mumkin"ligi belgilangan.² Bizning fikrimizga ko'ra, mamlakatimiz qonunchiligi 1997-yilgi MDHga a'zo mamlakatlar tomonidan qabul qilingan tezkor-qidiruv faoliyatiga doir Qonun normalaridan va umumiy huquq prinsiplaridan kelib chiqib, tezkor – qidiruv tadbirlari, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning mansabdor shaxslari tomonidan qabul qilingan qarorlar hamda tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi xodimlarning harakatlari (harakatsizliklari) yuzasidan qanday tartibda hamda qanday normalardan foydalangan holda huquqlarni ro'yobga chiqarish lozimligiga doir qoidalar bilan boyitilishi zarur. Zero har qanday qonundan asosiy maqsad inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash hamda kafolatlashdan iborat.

¹ The resolution of December 6, 1997 No. 10-12 is accepted at the tenth plenary session of Inter-parliamentary Assembly of the State Parties of the CIS

² 25.12.2012 yildagi O'RQ-344-son, "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi Qonun



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tezkor-qidiruv faoliyati. Darslik. B. Karimov. 2020. Toshkent. 474 bet
2. "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi Qonun, O'RQ-344, 25.12.2012
3. "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi Qonuniga ilmiy-amaliy sharh, B. Karimov. Toshkent.
4. Tezkor-qidiruv faoliyati. Darslik. A.K.Zakurlayev, Yu.S.Po'latov. 2014. Toshkent.

